

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING BILISH
FAOLIYATINI BOSHQARISHDA O'QITUVCHINING RAHBARLIK MAHORATI**

Turayeva Zilola Tura qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 05.11.2025

Revised: 06.11.2025

Accepted: 07.11.2025

*Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida
o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda
o'qituvchining rahbarlik mahorati haqida so'z boradi*

KALIT SO'ZLAR:

*psixika, tarbiya
jarayoni, o'quv
materiali, o'qituvchi
tajribasi*

Dars jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini o'stirish va unga rahbarlik qilish mahorati juda ko'p holatlarga bog'liqdir. Ana shu holatlardan biri o'qituvchining o'zi o'qitadigan fanini o'quvchilar uchun qiziqarli qilib tashkil qilishidir. Yoki mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'quvchilarning psixikasi diqqatiga, xayoliga, tasavvur, tafakkur va boshqa funksiyalariga ijobiy ta'sir qilishdir.

O'quvchining o'qitish va tarbiyalash jarayonida uning bilish faoliyatiga kuchli ta'sir etish uchun yoshini, psixik holatini va qiziqishini hisobga olish zarurligi haqida psixologlar qayta – qayta ta'kidlaydilar. Shuning uchun o'qituvchi qanday yo'l bilan, qaysi usul va o'zining qaysi mahorati bilan bo'lmasin o'quvchini o'quv materialiga qiziqтира olishi zarur. O'qituvchining oldiga doimo qanday qilib o'quvchining fikrini ijobiy tomonga yo'naltirish mumkin, degan savol turadi. Buning uchun o'quv tarbiya jarayonining ayrim qoidalariga rioya qilish kerak bo'ladi :

1. O'quvchilarda bilish, qiziqish, aqliy mehnat jarayonini tashkil qilishga qiziqtirish, bunday tashkil qilingan darsda o'quvchi aktiv qatnashib, yangi bilimlarni o'zi qidirishga harakat qilsin va dars problemali jarayonga aylansin;

2. Hamisha bir xillik bilan tashkil qilingan aqliy mehnat o'quvchilarni tez charchatadi, shuning uchun uni turli – tuman, har xil tashkil qilish maqsadga muvofiqdir;

3. O'qib turilgan va o'rganilib chiqilishi zarur bo'lgan fan va uning bo'limlarini o'quvchilarga qiziqarli qilish va uni tushunishi uchun fanning kerakligi va qayerda ishlatilishini o'quvchi tushunib o'qishi kerak;

4. O'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun yangi o'quv materiali ko'proq va o'tilgan o'quv materiali bilan bog'lab o'rganish yaxshi natija beradi. O'tilgan o'quv materialiga yangi materialni bog'lab o'rganish o'quvchilarni yangi materialga qiziqishini oshiradi.

5. Unchalik qiyin va qiziq bo'lmagan o'quv materiali o'quvchi uchun qiziqarli bo'lmaydi. Shuning uchun o'quv materiali o'quvchining qiziqishi va yoshiga mos bo'lishi zarur.

6. O'quvchining ishini qanchalik tez tekshirib turilsa, u yana ham ko'proq qiziqib ishlayveradi.

7. O'qituvchining o'quv materialini aniq va emotsional bayon qilishi o'quvchilarga o'quv materialini o'zlashtirishga qiziqtiradi.

O'qituvchilik faoliyati va ixtisosiga layoqati to'g'risida gap borganda muallimlarni shartli ravishda uch toifaga ajratish mumkin:

1. Izlanuvchan va ijodkor o'qituvchilar;
2. Tayyorgarlik ko'rishga istagi bo'lsada, o'z ishini nimadan boshlashni bilmay qiynalayotgan o'qituvchilar;
3. Ta'lim va tarbiya ishiga tasodifan kirib qolgan o'qituvchilar.

Maktab va Xalq ta'limi ishida birinchi toifaga kiruvchi, to'la ma'nodagi ijodkor o'qituvchilar xal qiluvchi kuch hisoblanadilar.

Darsning bilim berishdagi rolini, uning mas'uliyatini sezgan har bir ilg'or o'qituvchi mashg'ulotga puxta tayyorlanib, uning mazmunini boyitadi, tinmay izlanib, o'qitishning yangi usullarini yaratib, maktab ta'limida qo'llashga intiladi. Shu yo'l bilan bir soatlik darsni yaxshi bir asar sifatida o'z o'quvchilari ongiga singdiradi. Bunday fidoyi, o'zidan nur taratuvchi, ziyobaxsh qalb egalari shaxsiy ijodiy qobiliyati va boy tajribasi bilan ta'lim jarayonini boyitishga munosib hissa qo'shadilar. Shu tariqa har bir ijodkor o'qituvchi o'zining haqiqiy muallimlik mahoratini yaratadi.

O'qituvchi orttirgan tajribasini dars berish jarayonida qo'llashi bilan birga yuksak pedagogik mahoratini ham yorqin namoyon eta bilishi kerak bo'ladi. Ammo ba'zi bir o'qituvchilarda tadbirkorlik, siyosiy bilim, munozara olib borish madaniyati yetishmaydi. Buning o'rniga haddan tashqari hissiyotga berilish, toqatsizlik hollari bo'lib turadi. Jamiyat madaniyatli bo'lishi uchun axloqiylik katta o'rin egallaydi. Odob, madaniyat bo'lmasa, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy qonunlar amal qilmaydi, zamonaviy ilm – fan, xususan ta'lim rivoj topmaydi. Zero madaniyatni rivojlantirish jamiyatni ma'naviy jixatdan yangilashning mezonidir. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim tizimini vujudga keltirishda o'qituvchining professional madaniyatini ustirish muhim ta'lim – tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta'lim – tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni pedagogik ta'limning tarkibiy qismiga aylantirishda o'qituvchining ma'naviy – axloqiy qiyofasi yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, o'qituvchi faoliyatining ana shu yo'nalishi uning pedagogik bilim va mahorati bilan uygunlashib borishi lozim. Shu sababli o'qituvchilar tayyorlash mazmuni ularning professional madaniyati bilan uzviy bog'liqdir.

=====

Xo'sh, ana shu sifatlarga erishmoq uchun nimalarga e'tiborni qaratmoq kerak?

1. O'qitilayotgan fanlar nomlanishiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish;
2. Ular mazmunini boyitish;
3. O'quv predmetlari uchun ajratilgan soatlarni qayta ko'rib chiqish;
4. O'qituvchilarni professional tayyorlash metodika va usullarini boyitib borish.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunda biz yuqorida ko'rsatgan zaruriy yo'l – yo'riqlarni yanada takomillashtirishning metodik va nazariy asoslari sanab ko'rsatilgan. Darhaqiqat, ta'lim samaradorligi va sifat ko'rsatkichini belgilashda o'qituvchining professional madaniyati asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Quyida biz ana shu ma'naviy mezon bilan bog'liq madaniylik mahorati xususiyatlari to'g'risida fikr yuritir ekanmiz, ushbu masala bo'yicha metodist – olimlar bildirgan mulohazalarga ham murojaat etamiz va ulardan ijodiy foydalanamiz.

Bu yo'nalishlar orasida pedagogik madaniyat yetakchi o'rin egallaydi. Mazkur tushuncha mohiyat – e'tibori bilan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik aloqasi izohlaydi. Shunga ko'ra ta'limni insonparvarlashtirish masalasi mazkur yo'nalishda xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar shaxslararo muloqot va munosabatlarini, o'zaro hurmat va ishonch hamkorligini yo'lga quyishga erishiladi. Garchi, bu jarayon oson yo'l bo'lib hisoblansa ham, biroq ana shu usul asosida ish ko'rgan o'qituvchi o'zi hohlagan holda ta'lim mazmuni va sifatini sinfdagi bilimga moslashtirishga intiladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilarning didaktik hamkorligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Dars davomida ta'lim mazmuni, irodaviy zo'r berish sifatlari tarbiyalab boriladi.

Psixologik madaniyat ham pedagogik madaniyatga mazmun jihatdan yaqin turadi. Bu tushuncha mazmuni o'quvchi va o'qituvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi asosini belgilaydi. Ushbu ma'rifiy jarayon «inson-shaxs-rivojlanish» «shaxs – jamiyat», «shaxs – kasb», «shaxs – mahorat-ijodkorlik» ko'rinishlarida amalga oshadi.

Pedagogika va psixologiyadan olingan bilimlar uyg'unlashib, metodik madaniyat qirralari bilan bog'lanib ketadi. O'quvchining ongi, qobiliyati, iste'dodiga kuchli ta'sir ko'rsatilib, axloqiy, madaniyatli yangi inson shakllantiriladi. O'qituvchi bu masalalarni hisobga olib, o'z madaniy saviyasi, bilimi orqali o'quvchilarning qiziqishi va ma'naviy extiyojlarini o'stirishga intiladi.

Bo'lajak o'qituvchi uchun metodik madaniyati juda muhimdir. Mazkur ta'limiy jarayonni egallashi uchun yosh o'qituvchi muayyan tushuncha, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib borishi kerak. «O'qituvchining metodik mahorati», «Chet tili (fizika, ximiya va boshqa fanlar) o'quv predmeti sifatida, «Muayyan fanlarni o'qitish uslubiyoti». Ta'limning texnika vositalaridan foydalanish uslubiyoti, kompyuter savodxonligi kabi o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishga to'g'ri keladi. Pedagogik muammoga doir izlanishlar bilan tanishilib chiqilayotganda «Metodika tarixi», «Professional ijodkorlik asoslari», «Dars texnologiyasi» singari adabiyotlar o'qituvchiga katta yordam beradi.

U yoki bu predmetni sinfdan tashqari ishlarni uyushtirishga tayyorgarlik ko'rish, maktabda o'quv praktikasini o'tkazish ham metodik madaniyatning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Chunonchi, maktabda o'quv praktikasini o'tkazish jarayonlariga qarab bo'lajak o'qituvchilar «Leksiya – seminar – mustaqil ish – amaliy o'yin» ko'rinishidagi pedagogik mashg'ulotlarda faollik ko'rsatishlari yaxshi natija beradi.

Bo'lajak o'qituvchilar ilmiy tadqiqot madaniyatini egallashlari uchun ilmiy – metodik tomondan jiddiy izlanishlari zarur bo'ladi. Maxsus tashkil etiladigan «Ilmiy tadqiqot ishlari» kursi ularni ko'p narsaga o'rgatadi. Shu ta'limiy jarayon mobaynida ular «O'qituvchi – tadqiqotchi», «O'z ustida ilmiy mustaqil ishlash asoslari», «Ilmiy bilish metodlari», «Ilmiy tadqiqot tartibi», «Ilmiy fikrlashning talab va mantiqi», «Pedagogik tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlari», «Ilg'or tajribalarni umumlashtirish asoslari», «Ilmiy munozara» mavzularida leksiya tinglasalar va birgalikda muhokama qilsalar tadqiqotchilik madaniyatini egallashga yanada chuqurroq yondashadilar.

O'qituvchi madaniy saviyasini o'stirishga va mahoratini taksimlashtirishga muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. «Iqtisodiy bilim asoslari», «Falsafa bilim asoslari», «Ishbilarmonlik davr talabi» kabi siyosiy bilimlar bilan qurollantirish orqali o'qituvchilardagi ijtimoiy – siyosiy bilimlar hajmi yanada ortadi.

Ma'naviy madaniyat bo'lajak o'qituvchi uchun juda zarur bo'lib, o'z ichiga ko'pgina tushunchalarni qamrab oladi. Masalan, «Jahon madaniyati tarixi»ni o'rganish jarayonida ham nazariy, ham qiziqarli amaliy mashg'ulotlar uyushtirilishi mumkin. Chunonchi, «Etika va estetika» kursi mashg'ulotlari leksiya yoki seminar ko'rinishida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa san'tiga doir mashg'ulotlar esa amaliy ahamiyat kasb etadi. Muayyan fan o'qituvchilari rasm chizish bilan ham mashg'ul bo'ladilar. Shuningdek, devoriy gazetalar chiqarish, turli ko'rsatmali qurollar yasash ham ma'naviy madaniyatni shakllanishida katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2011.- 420 b.
3. Ziyomammedov B. Pedagogik maxorat asoslari. -T.: Tib-kitob, 2009.- 183 b.
4. Боубекова Г.Д., Холикова Г.Т., Магзумова Г. Педагогическое мастерство. Учебное пособие. Т.: 2002 - 63 s.
5. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar Pedagogik psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. -410 b.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2006. -261 b.

=====

7. Axborot tizimlari va texnologiyalari / OO'Yu uchun darslik. S.S.G'uomov va b. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

8. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007.